

Fan platformasi		
Fanning to'liq nomi: Operatsion menejment		
Fan kodi: OPM3604	Fanga ajratilgan kreditlar (ECTS):4	davomiyligi: 1 semestr
Kafedra: Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti		
Fan qaysi yo'nalish talabalari uchun: Menejment (kimyo va oziq-ovqat sanoati)		
Fan ma'ruza o'qituvchisi: Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li		
Fanga ajratilgan umumiy soatlar: 120	Email: phdakbar90@gmail.com	
Fan seminar mashg'ulotlari o'qituvchisi(lari): Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li		
Prerekvizitlar: Kimyo sanoati va Tanlov turi: majburiy fan umum ta'lim kadrlarni tayyorlash		
<p>Fanning qisqacha bayoni: “Operatsion menejment” fani mutaxassislik fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 3-kursda o'qitilishi maqsadga muvofiq. Mazkur fan iqtisodiy fanlar turkumiga kiradi. Fanni puxta o'zlashtirish nazariy materiallarni bilish bilan birga, talabalarning mutaxassislik va ishlab chiqarish amaliyoti davrida va universitetni bitirgandan keyingi ishlarda ko'nikma sifatida xizmat qiladi.</p>		

Fanning maqsadi: Ushbu fan bugungi kunda mamlakatimizni rivojlantirish, yangilash va modernizatsiya qilish bo'yicha tanlagan strategiyani amalga oshirishda biznes jarayonlarni samarali boshqarish, tejamkorlik g'oyasini ilgari surish, xorijiy yirik kompaniyalarning boshqaruvida TQM, JIT, Kayzen, Canban, ABC(Aktiviti Based Costing) konsepsiyalarini qo'llashni tushinishda talabalarni zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiradi. Operatsion menejment ishlab chiqarish tizimlarini, ulardan foydalanish va doimiy takomillashtirish asosida harajatlarni optimallashtirish, kadrlar saloxiyatini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sifatini ta'minlash muammolarni o'z ichiga oladi. Shuningdek har qanday operatsiyalarni, avvalo mijoz va tashkilotlar uchun tayanch belgilarga ega barcha operatsiyalarni samarali va oqilona boshqarishni o'ziga xos jihatlari bo'yicha yangi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Fan yakunida talabalar quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishadi:

➤ boshqaruvga zamonaviy yondashuvlar, tejamkorlik, reinjining, 5 R, AVS tahlil, Balanced Scorecard, TQM, RPM, JIT tizimi bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarini qo'llash va tatbiq etish uslubiyatlari to'g'risida **tasavvurga ega bo'ladi**;

➤ korxonalar faoliyatini tahlil qilish, korxonalar menejmentini baholash, strategik, taktik va operativ qarorlar qabul qilish, operatsion strategiya ishlab chiqish, yangi mahsulotlarni loyihalashtirish, reinjining, sifat menejmenti va benchmarking usullarini qo'llash, biznes jarayonlarni baholash asosida samaradorlik mezon ko'rsatkichlarini ishlab chiqishni **bilishi va ulardan foydalana oladi**.

➤ ishlab chiqarish korxonalarida ilmiy asoslangan tadqiqotlar asosida ishlab chiqarish harajatlarini minimallashtirishga, yangi mahsulotlarni loyihalashtirishda ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion faoliyatni tashkil etish, korxonalariga operatsion strategiya ishlab chiqish, korxonalariga JIT, Kayzen tizimlarini tatbiq etish, biznes jarayonlarni samarali boshqarish,

xodimlarni rivojlantirish, operatsion strategiyani amalga oshirishda yuzaga keladigan muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish *ko'nikmalariga ega bo'ladi*.

Ma'ruza mashg'ulotlari

Ma'ruza mashg'ulotlari katta sig'imli, multimedia qurilmalari bilan jihozlangan o'quv auditoriyalarida olib boriladi.

Amaliy mashg'ulotlar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, "Keys-stadi" texnologiyasi ishlatiladi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi. Shuningdek, mavzudan kelib chiqib dars mashg'uloti mehmonxonada sayyor dars tarzida olib boriladi.

Mustaqil ta'lim

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan taqdimotlar, guruh bilan ishlanmalar, referatlar tayyorlanadi.

№	Fan mavzulari	Ma'ruza soatlar hajmi	Amaliy mashg'ulot soatlar hajmi	Mustaqil ta'lim soatlari
1	Operatsion menejmentning predmeti va vazifalari.	2	2	6
2	Kompaniya operatsion strategiyasi.	2	2	6
3	Sifat menejmenti tizimi asosida operatsion strategiyani amalga oshirish.	2	2	6
4	Yangi mahsulot va xizmatlarni loyihalashtirish.	2	2	6
5	Sifat boshqaruvi va benchmarking.	2	2	6
6	Rejalashtirish va prognozlash.	2	2	6
7	Ishlab chiqarish quvvatlarini strategik rejalashtirish.	2	2	6
8	Qiyamatlar zanjirini boshqarish.	2	2	6
9	Operatsion menejmenti jarayonlarini boshqarish.	2	2	6
10	Jarayonlarni tasvirlash.	2	2	6
11	Operatsiyalar va jarayonlarni takomillashuv tamoyillari.	2	2	6
12	Operatsion konsalting.	2	2	6
Jami		24	48	72

Asosiy adabiyotlar

1. Qosimova D. Menejment nazariyasi. Darslik. Toshkent-2011. 336 b.
2. M.G.Umarxodjayeva. Operatsion menejment Darslik. Toshkent-2014. 368 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

3. SH.M.Mirziyoev Buyuk kelajagimiz ni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz., 2017.
4. SH.M.Mirziyoev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va halq farovonlining garovi. 2017.
5. SH.M.Mirziyoev Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. 2017 y
6. Yo'ldoshev N.Q., Yusupova D.T. Sifat menejmenti.O'quv qo'llanma.-T.:TDIU, 2019y. – 270b.
7. Yo'ldoshev N.Q., Nabokov V.I. Menejment nazariyasi. Darslik. –T.:TDIU, 2013.- 433 b.
8. Yo'ldoshev N.Q., Yusupova D.T. Tizimli menejment nazariyasi. Darslik. T.: TDIU, 2019y. 270b.

Axborot manbaalari.

9. <http://tkti.uz/uz/pages/info/16>
10. <http://www.LexUZ.uz>.
11. www.gov.uz O‘zbekiston Respublikasining davlat portali.
12. www.mineconomv.uz O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vazirligi sayti
13. **www.lex.uz** O‘zbekiston respublikasi Adliya vazirligining qonunchilik xujjatlari sayti
14. **www.stat.uz** – O‘zbekiston Respublikasi Statistika bo‘yicha davlat qumitasining sayti.

Kontakt soatlari*: mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish, ularni taqdim etish, zarur ma’lumotlar va turli materiallar bo‘yicha savollarga quyidagi grafik asosida o‘qituvchiga murojaat qilishingiz mumkin:

№	Kun	Vaqt	Xona
1.	Shanba	10.00 – 12.00	312